

Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi

Ahmedova Dinora Qamaraddin qizi

KIRISH

Har bir xalq tarixida uning dardi, orzusi va haqiqatini so'z orqali ifoda etgan buyuk siymolar bo'ladi. Qoraqalpoq xalqi uchun ana shunday ulug' zotlardan biri — Berdaqdir. U shunchaki shoir emas, balki o'z xalqining og'ir hayotini yuragidan o'tkazib, uni satrlarida aks ettira olgan mutafakkir edi. Berdaqning hayot yo'li mashaqqatlar, adolatsizlik va ijtimoiy tengsizliklar bilan kechgan bo'lsa-da, u hech qachon haqiqatdan yuz o'girmadi. Shoir o'z asarlari orgali xalqni uyg'otishga, adolat va ma'rifat sari yetaklashga intildi. Shu bois Berdaq hayoti va ijodi bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, balki har bir avlod uchun ibrat manbai bo'lib qolmoqda. Berdaq qoraqalpoq xalqining buyuk shoiridir. Uning ijodi milliy adabiyotimizning rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Maqolada Berdaqning hayoti va ijodi haqida batafsil ma'lumot beriladi, uning Qoraqalpoq adabiyotiga qo'shgan hissasi, she'riyatidagi badiiy yuksaklik va o'ziga xos uslubi tahlil qilinadi. Berdaq ijodining hozirgi zamon ma'daniyati va adabiy jarayoniga ta'siri yoritiladi. Maqola yosh avlod uchun ibrat va ilhom manbai sifatida Berdaqning adabiy merosini o'rganishning ahamiyatini ochib beradi.

She'riy mushohadalari va hayotga kurashida Berdaq mehnatkashlarning baxtiyor yashashini orzu qildi. Berdaq xalqni baxtli qilish haqida o'ylar ekan, Alloxdan madad so'raydi („Yordam ber"), baxt haqida fikr yuritadi „Izladim"), odil podshoni orzu qiladi „Kerak"), baxtiyor yashaydigan jamiyat qurilishiga asos bo'ldi.



Berdag ijodi xala og'zaki adabiyoti an'alariga yaqin turadi. Ijodining sergirraligi, asarlarining g'oyaviy va badily yuksakligi bilan qoraqalpoq adabiyoti tarixida asosiy mavgeyni egallaydi. Uning ko'pgina asarlari o'zbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima gilingan. O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlangan(1998). Toshkent shahridagi hiyobonlardan biriga "Berdag" nomi berildi va byusti o'rnatildi. Shoir tugilgan joy - Bo'zatovda ham byusti o'rnatilgan(1998). Nukus shahrida unga atab haykal qo yilgan, musiqali drama teatri, ko'cha va maktabga Berdaqning

nomi berilgan. Berdaqni ijodini o'rganish, qo'lyozmalarini izlab topish ishlari o'tgan asrning 30 - yillaridan keyin boshlangan. Shundan song uning she'r va dostonlari avval ona tilida keyin boshqa bir qator tilarda bosilib chiqdi. Uning hayoti va ijodini chuqur o'rganishga kirishildi. Mamlakatimiz istiqbolga erishga, Berdaq hayoti va ijodiga munosabat tubdan o'zgardi. 1998 - yilda Yurtboshimiz farmoniga binoan Berdimurot Qarg'aboy o'gli Berdaq tavalludining 180 yilligi keng nishonlandi. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti qoshida Berdaq Milliy muzeyi tashkil etildi. Berdaq (taxallusi; asl ismi Berdimurod Qarg'aboy o'g'li) (1827- Mo'ynoq tumani-1900) shoir, qoraqalpoq adabiyoti asoschisi. Avval ovul maktabida, so'ng madrasada tahsil ko'rgan. Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumlul va qoraqalpoq shoiri Kunxo'ja asarlarini chukur mutolaa qilgan, ulardan o'rgangan. U tarixni va xalq, og'zaki ijodini yaxshi bilgan. Berdaqning lirik she'rlarida, dostonlarida qoraqalpoq xalqining 18— 19 - asrlardagi ijtimoiy hatti o'z ifodasini topgan. U o'z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. Berdaq ko'p shaharlarga sayohat qildi. Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida bo'ldi. Urganch va Buxoroni ziyorat qilib, qadimiy yodgorliklar bilan tanishdi. Berdaq Alisher Navoiy, Fuzuliy va Maxtumlul ijodlarini chuqur o'rganib, she'rlarini mutolaa qildi. Zamondosh shoirlar bilan musohib bo'ldi. Berdaq she'rlarining aksariyati kambag'al, beva - bechoralarning ayancli hayoti, ularning og'ir mehnati, boy-zodagonlarning ularga nisbatan qilgan shafqatsizligi, zo'rovonligi va adolatsizligiga bag'ishlangan. Berdaqning ijodi 18-19 yoshlaridan do'mbira chertib she'r aytishdan boshlandi. 25 yoshida u iste'dodli shoir sifatida xalq orasida tanildi.

Berdag «Shajara», «Xorazm», «Amongeldi», «Aydosbiy» va «Ahmoq podsho» dostonlarining ham avtoridir. 1961 - yilda Berdaqning she'rlar to'plami o'zbek tilida bosilib chiqdi. "O'zbekkino" milliy agentligi buyurtmasiga binoan "Qoraqalpoqfilm" kinostudiyasi tomonidan Berdaq hayoti va ijodi haqida "Amu sohili kuychisi" nomli hujjatli film suratga olinmoqda. Mazkur film yetuk shoir, qoraqalpoq mumtoz adabiyoti asoschisi Berdaq taxallusi bilan irod qilgan Berdimurod Qarg'aboy o'g'li haqida bo'lib, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 - yil Adiblar xiyoboniga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar ijrosi doirasida tasvirga olinmoqda. Ssenariy muallifi Kengesbay Karimov, rejissyor Bektilev Nizamatdinov, operator Asenbay kartina direktori Baxtiyar Madiyarov. Filmni suratga olish ishlari Qoraqalpog'istonning Bozatov tumani Berdaq bog'i, Qoraqalpoq davlat universiteti, Berdaq muzeyi va boshqa joylarda bo'lib o'tmoqda. Undan tashqari, Berdaq nomiga atab, Qoraqalpog'iston davlat universiteti ham bunyod etilgan.

XULOSA VA MUNOZARA

Har yili mamlakatimizda 27 noyabr kuni qoraqalpoq elining buyuk shoiri Berdimurot Qarg'aboy o'g'li Berdaqning tavallud ayyomi keng nishonlanadi. Xususan Qoraqalpog'istonning shahar va tumanlarida, ma'naviyat va ma'rifat maskanlarida berdaqxonlik tadbirlari o'tkaziladi. Uning she'r va dostonlaridan namunalar o'qiladi. Berdaq simosi hqiqiy ma'nod nainki qoraqalpoq, balki butun turkiy xalqlarning g'urur va iftixori timsoliga aylangan.

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent-2000-yil
 2. Tanglauli shig‘armalari, Nokis 1956-yil
 3. Qurboboyev B, Berdaq va o‘zbek adabiyoti T;1986-y
 3. Tanlangan she‘rlar 1958-yil T;1976
 4. 5. Qurboboyev B, Berdaq va o‘zbek adabiyoti T;1986-y
- Ma'naviyat yulduzlari-Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. Toshkent- 1999-yil